

AKSIYA PASPORTI «Muvaffaqiyatli ayol»

Ushbu pasport “Garant bank” AJ tizimida hisob ochtirayotgan ayol mijozlar uchun “Muvaffaqiyatli ayol” (keyingi o’rinlarda “Aksiya”) ni o’tkazish tartibi, shartlari va muddatlarini belgilaydi.

1.AKSIYA MAQSADI

Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan tadbirkor ayollarni qo’llab –quvvatlash, shuningdek, kredit mahsulotni amalga oshirish uchun ushbu aksiya quyidagilarni taklif etadi:

«Hisob ochtir+bepul xizmatlarga ega bo’l+ “Muvaffaqiyatli ayol” krediti va korporativ plastik kartani sovg’a sifatida bepul qabul qil!»

Kredit o’z biznesini rivojlantirayotgan tadbirkor ayollarni qiziqtirib qo’yadi, bankka mijozlar bazasini kengaytirish, yangi potensial mijozlarni jalb qilish, umuman bank uchun qo’shimcha daromad olish imkonini taqdim etadi.

2.AKSIYA TAVSIFI

Kredit yakka tartibdagi tadbirkor ayollar, ayollar boshqaruvidagi yoki ustav kapitalida xotin-qizlarning ulushi kamida 50 foizni tashkil etadigan kichik va o’rta korxonalarning biznesini rivojlantirish uchun mo’ljallangan.

Ushbu Aksiya 2026 yil 6 martdan 6 maygacha bo’lgan davrda hisob raqami ochgan yangi mijozlar – yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkor ayollarga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

1. Komissiyasiz xizmat ko’rsatish:

- To’lov hujjati bo’yicha mablag’ o’tkazish (debet aylanmasi)-0;
- “Internet-banking”, “Mobile-banking” masofaviy xizmatlari;
- Terminallar ijarasi – 0;
- Korporativ kartani to’ldirish -0

2. “Muvaffaqiyatli ayol” krediti shartlari:

- foiz stavkasi – 24,99%
- kredit muddati 36 oygacha
- imtiyozli davr - 6 oy
- kredit maqsadi – aylanma mablag’larni to’ldirish
- kredit summasi : 300 mln.so’mgacha («Biznes-Hamkor», «Biznes GO» mahsulotlari doirasida)
- kredit valyutasi –so’m
- Kredit summasining kamida 125% miqdorida likvidli garov.

3. Bundan tashqari, ushbu mijozlarga **sovg'a sifatida milliy valyutadagi korporativ plastik karta olish imkoniyati** qo'shimcha tarzda taqdim etiladi (tanlov asosida):

- HUMO

- UzCard

Muddat tugagandan keyin mijoz Bankning tasdiqlangan tariflariga muvofiq standart xizmat ko'rsatish shartlariga o'tkaziladi.

3. AKSIYA ISHTIROKCHILARI

“Garant bank” AJ BXO (bank xizmatlari ofisi) va BXM (bank xizmatlari markazi) ga jalb qilinayotgan barcha yangi mijozlar –yakka tartibdagi tadbirkor ayollar, ayollar boshqaruvidagi (yoki ustav kapitalida xotin-qizlarning ulushi kamida 50 foizni tashkil etadigan) kichik va o'rta korxonalar.

4. AKSIYANING O'TKAZILISH MUDDATI

1. Aksiyaning o'tkazilish muddati - 2026 yil 6-martdan 6-maygacha

2. Aksiyaning amal qilish muddati – 2026 yil 6-martdan 6-avgustgacha

5. MARKETING FAOLLIKLAR

Potensial yoki mavjud mijozlar e'tiborini ushbu aksiyaga jalb qilish maqsadida marketing faollik o'tkazilsin va “Garant bank” BXO va BXM, bank veb-sayti, telegramm kanali, Meta, Google, Yandeks, Vaqt.uz platformalarida axborot tarqatilsin.

Korporativ biznes boshqarmasi boshlig'i D. Sharipova